XALQ DEPUTATLARI BUXORO TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 10 - mart VI-51-24-2-32-K/22 Buxoro tuman hokimligi

Tumandagi “Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining hududini bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022-yil 14 fevraldagi 08-01020-sonli xati, shuningdek “Geografik obektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to’g’risida”gi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi 2022 yil 10 fevraldagi 01-14-139-sonli ekspert xulosasini va “Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘ining 2022 yil 10 yanvardagi 2-sonli “Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tuzish” bo‘yicha bergan iltimosnomasini inobatga olib xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Buxoro tumani “Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022 yil 10 yanvardagi 2-sonli “Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tuzish” bo‘yicha bergan iltimosnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin va qanoatlantirilsin.

2. “Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘ini hududining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomi 1-ilovaga muvofiq;

- bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yer maydoni 2-ilovaga muvofiq;

- bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining aholi soni 3-ilovaga muvofiq;

- bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining chegaralari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (A.Rajabov)ga, tuman Statistika bo‘limi, tuman Davlat xizmatlari markazi (Yo.Murodov)ga, Davlat Kadastrlari Palatasi Buxoro

tuman filiali (R.Rustamov) va tuman qurilish bo‘limi (B.Muslimov)ga hamda boshqa tegishli mutasaddilarga:

- Davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron ba’zani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarini amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Atoev)ga:

- Mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aksettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

- yangi tashkil qilinayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining dumaloq muxri va shtamplarini tayyorlashga ruxsat berish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosari (A.Rajabov)ga va qurilish bo‘limi (B.Muslimov)ga:

-Tumanda yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organiga yangi nom yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

6. Tuman xokimligi moliya bo‘limi (Sh.Karimov)ga:

- Belgilangan tartibda shtat birliklari kiritish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimi o‘rinbosari - Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (Sh.Toshev)ga va tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi(O.Hakimov)larga:

-Yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining talablari asosida mahalla xududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlari o‘tkazilib, saylov yig‘ilishiga vakillar normasi asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan munosib kadrlar zahirasini shakllantirib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

8.“Galaosiyo Ovozi” gazetasi tahririyati (B.Rajabov) mazkur qarorni gazetada rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmati(M.Qosimov) hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning bajarilishi nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Toshev va tuman xokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi raxbari O.Hakimovlar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi raisi **Jurayev X. K.**

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2022 yil 10 martdagi
VI-51-24-2-32-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomi va joylashishi to‘g‘risida

№	**Bo‘linayotgan fuqarolar yig‘ini nomi**	**Bo‘lingan fuqarolar yig‘ini nomi**	**Yangi tashkil etilgan fuqarolar yig‘ini nomi**
1.	**“Shergiron”** mahalla fuqarolar yig‘ini	**“Shergiron”** mahalla fuqarolar yig‘ini	**“Yangi O‘zbekiston”** mahalla fuqarolar yig‘ini

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2022 yil 10 martdagi
VI-51-24-2-32-K/22-son qaroriga
2-ilova

“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yer maydoni

№	“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy yer maydoni (ga)	“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan yer maydoni (ga)	Yangi tashkil etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni(ga)
1.	1044,3 ga	668,5 ga	375,8 ga

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2022 yil 10 martdagi
VI-51-24-2-32-K/22-son qaroriga
3-ilova

“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining aholi soni

№	“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy aholi soni (nafar)	“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)	Yangi tashkil etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)
1.	8957	5567	3390

Xalq deputatlari Buxoro tuman
Kengashining
2022 yil 10 martdagi
VI-51-24-2-32-K/22-son qaroriga
4-ilova

“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

№	**“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**	**“Shergiron” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**	**Yangi tashkil etilayotgan “Yangi O‘zbekiston”mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari**
1.	Buxoro tumani Arabxona MFY, Madaniyat-Rabot MFY, Dehcha MFY, Xonabod MFY, Rabotipoyon MFY, Kulonxona MFY, Yangiobod MFY, Amirobod-Guliston MFY, Podshohi MFY.	Buxoro tumani Arabxona MFY, Madaniyat-Rabot MFY, Dehcha MFY, Xonabod MFY, Rabotipoyon MFY, Kulonxona MFY, Yangiobod MFY, Amirobod-Guliston MFY, Podshohi MFY.	Buxoro tumani Shergiron MFY, Dehcha MFY, Xonabod MFY, Rabotipoyon MFY